

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Andijon viloyati 1941 yilda tashkil topgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birligi hisoblanadi.

Andijon viloyati O'zbekiston Respublikasining janubiy qismida joylashgan bo'lib, maydoni 4,30 ming kv. km.

Viloyatda 880 ta MFY joylashgan va ularning hududida 3127,6 ming aholi istiqomat qiladi.

Andijon viloyati ma'muriy hududiy tarkibi bo'yicha 2 ta viloyatga bo'ysunuvchi shahar va 14 ta tumanga bo'lingan.

Andijon va Xonobod shaharlari viloyatga, hamda Asaka, Bulqoboshi, Jalaquduq, Poytug', Qo'rg'ontepa, Marhamat, Paxtaobod, Xo'jaobod va Shahrixon shaharlari tumanga bo'ysunadi.

Ma'muriy markazi - Andijon shahri aholisi 441,7 ming kishi.

Andijon viloyati Qirg'iziston davlati bilan chegaradosh, davlat chegarasi 409,3 km. Andijon viloyati Farg'ona viloyati va (101,2 km), Namangan viloyatlari bilan (106,6 km) chegaradosh.



### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi)

#### Andijon Viloyati



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yilning 1 yanvar holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3127,6 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 60,7 ming kishiga yoki 102 foizga ko'paydi. Shundan, 30046 kishi shahar joylarida va 30694 kishi qishloq joylarida ko'paygan.

Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020 yil 1 yanvar holatiga eng ko'p aholi soni Andijon shahrida 441,7 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,1 %) va Asaka tumanida 325,7 ming kishini (10,4%), aksincha eng kam aholi soni Xonobod shahrida 42,5 ming kishi (1,4 %) va Uluynor tumanida 59,3 ming kishini (1,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Qo'rg'ontepa tumanida 2,3 %, Asaka va Shahrixon tumanlarida 2,0 % ni, Andijon tumanida esa 2,3% ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Andijon shahrida 1,8 % ni tashkil etdi.

## Demografik holat

### Doimiy aholi soni.

Andijon viloyatining doimiy aholisi soni 2020 yil 1 yanvar holatiga 3127,6 ming kishini tashkil etib jumladan, shahar aholisi soni 1633,7 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 52,2%), qishloq aholisi soni 1493,8 ming kishini (47,8 %) tashkil etdi.

### Andijon viloyati aholisining umumiy o'sishi (2019 yil yanvar- dekabr oylarida)

|                          | <i>2019 yil<br/>1 yanvar holatiga</i> | <i>2020 yil<br/>1 yanvar holatiga</i> | <i>O'tgan yilga nisbatan o'sish<br/>sur'ati, %</i> |
|--------------------------|---------------------------------------|---------------------------------------|--|
| <b>Viloyat bo'yicha:</b> | <b>3 066 879</b>                      | <b>3 127 619</b>                      | <b>102,0</b>                                       |
| Andijon sh.              | 433 901                               | 441 713                               | 101,8  |
| Xonobod sh.              | 41 679                                | 42 507                                | 102,0  |
| Oltinko'l tumani         | 172 913                               | 176 665                               | 102,2  |
| Andijon tumani           | 256 225                               | 261 796                               | 102,2  |
| Baliqchi tumani          | 195 510                               | 199 325                               | 102,0  |
| Bo'ston tumani           | 70 278                                | 71 665                                | 102,0  |
| Buloqboshi tumani        | 139 303                               | 141 905                               | 101,9  |
| Jalaquduq tumani         | 181 902                               | 184 834                               | 101,6  |
| Izboskan tumani          | 231 570                               | 236 401                               | 102,1  |
| Ulug'nor tumani          | 58 157                                | 59 322                                | 102,0  |
| Qo'rg'ontepa tumani      | 210 765                               | 214 832                               | 101,9  |
| Asaka tumani             | 319 286                               | 325 729                               | 102,0  |
| Marhamat tumani          | 168 878                               | 172 116                               | 101,9  |
| Shahrixon tumani         | 291 366                               | 297 642                               | 102,2  |
| Paxtaobod tumani         | 188 030                               | 191 686                               | 101,9  |
| Xo'jaobod tumani         | 107 116                               | 109 481                               | 102,2  |

## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2020 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi)

|                          | Doimiy aholi soni,<br>kishi | shahar           | qishloq          |
|--------------------------|-----------------------------|------------------|------------------|
| <b>Viloyat bo'yicha:</b> | <b>3 127 619</b>            | <b>1 633 747</b> | <b>1 493 872</b> |
| Andijon shahri           | 441 713                     | 441 713          | 0                |
| Xonobod shahri           | 42 507                      | 35 615           | 6 892            |
| Oltinko'l tumani         | 176 665                     | 93 055           | 83 610           |
| Andijon tumani           | 261 796                     | 200 951          | 60 845           |
| Baliqchi tumani          | 199 325                     | 67 814           | 131 511          |
| Bo'ston tumani           | 71 665                      | 25 081           | 46 584           |
| Buloqboshi tumani        | 141 905                     | 69 045           | 72 860           |
| Jalaquduq tumani         | 184 834                     | 77 358           | 107 476          |
| Izboskan tumani          | 236 401                     | 75 835           | 160 566          |
| Ulug'nor tumani          | 59 322                      | 6 065            | 53 257           |
| Qo'rg'on tepa tumani     | 214 832                     | 91 796           | 123 036          |
| Asaka tumani             | 325 729                     | 98 646           | 227 083          |
| Marhamat tumani          | 172 116                     | 135 814          | 36 302           |
| Shahrixon tumani         | 297 642                     | 98 711           | 198 931          |
| Paxtaobod tumani         | 191 686                     | 70 359           | 121 327          |
| Xo'jaobod tumani         | 109 481                     | 45 889           | 63 592           |



## Demografik holat



### Ma'lumot uchun:

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Tug'ilish.** 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 77 674 ta bola tug'ilganligi qayd bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 25,1 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 1,3 promillega ortgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Andijon shahrida (22,4 promilledan 24,6 promillega) va Ulug'nor tumani (22,1 promilledan 24,2 promillega) va Bo'ston tumanida esa (22,9 promilledan 25,1 promillega) sezilarli o'sgan.

### Shahar va tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni (2019 yil, kishi)

|                     | 2018 y. | 2019 y. | O'sish sur'ati |
|---------------------|---------|---------|----------------|
| Andijon viloyati    | 72 231  | 77 674  | 108            |
| Andijon sh.         | 9 664   | 10 769  | 111            |
| Xonobod sh.         | 758     | 871     | 115            |
| Oltinko'l tumani    | 4 139   | 4 589   | 111            |
| Andijon tumani      | 6 041   | 6 460   | 107            |
| Baliqchi tumani     | 4 463   | 4 964   | 111            |
| Bo'ston tumani      | 1 593   | 1 778   | 112            |
| Buloqboshi tumani   | 3 145   | 3 390   | 108            |
| Jalaquduq tumani    | 4 292   | 4 361   | 102            |
| Izboskan tumani     | 5 651   | 5 950   | 105            |
| Ulug'nor tumani     | 1 273   | 1 424   | 112            |
| Qo'rg'ontepa tumani | 4 773   | 5 044   | 106            |
| Asaka tumani        | 7 757   | 8 172   | 105            |
| Marhamat tumani     | 4 023   | 4 333   | 108            |
| Shahrixon tumani    | 7 537   | 7 877   | 105            |
| Paxtaobod tumani    | 4 579   | 4 861   | 106            |
| Xo'jaobod tumani    | 2 543   | 2 831   | 111            |

**Vafot etganlar.** 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida 14 760 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, barcha shahar, tumanlarda 2018 yilning mos davriga nisbatan kamayish va ko'payish yuz bergan. 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,8 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,3 promillega kamaygan.


O'lim koeffitsiyentining sezilarli darajadagi ko'payishi Andijon shahri (5,3 promilledan 5,5 promillega) kuzatildi.

### Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni (yanvar-dekabr, kishi)

|                      | <i>2018 y.</i> | <i>2019 y.</i> | <i>O'sish sur'ati</i> |
|----------------------|----------------|----------------|-----------------------|
| Andijon viloyati     | <b>15 365</b>  | <b>14 760</b>  | <b>96</b>             |
| Andijon sh.          | 2 301          | 2 419          | 105                   |
| Xonobod sh.          | 180            | 185            | 103                   |
|                      |                |                |                       |
| Oltinko'l tumani     | 818            | 783            | 96                    |
| Andijon tumani       | 1 316          | 1 249          | 95                    |
| Baliqchi tumani      | 931            | 913            | 98                    |
| Bo'ston tumani       | 364            | 304            | 84                    |
| Buloqboshi tumani    | 668            | 636            | 95                    |
| Jalaquduq tumani     | 885            | 887            | 100                   |
| Izboskan tumani      | 1 218          | 1 179          | 97                    |
| Ulug'nor tumani      | 283            | 211            | 75                    |
| Qo'rg'on tepa tumani | 1 015          | 903            | 89                    |
| Asaka tumani         | 1 601          | 1 553          | 97                    |
| Marhamat tumani      | 895            | 811            | 91                    |
| Shahrixon tumani     | 1 403          | 1 286          | 92                    |
| Paxtaobod tumani     | 892            | 887            | 99                    |
| Xo'jaobod tumani     | 595            | 554            | 93                    |

## Koeffitsiyenti.

(2019 yil yanvar-dekabr holatiga,  
1000 aholiga nisbatan, promille)



**Tabiiy o'sish.** 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 62 914 kishini tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 6 048 kishiga (2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 56 866 kishi bo'lgan) o'sgan.




**Tabiiy o'sish:**  
6.0 ming kishi

## Demografik holat

2019 yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 64,5 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 4,5 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 9,1 foizi o'simtalardan, 3,2 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 4,9 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,5 foizi yuqumli va parazitlar kasalliklaridan hamda 12,2 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 933 nafarni tashkil etib, ularning 61,5 foizi (574 ta) perinatal davrda yuzaga kelgan holatlardan, 19,7 foizi (184 ta) nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 7,7 foizi (72) tug'ma anomaliyalardan, 1,5 foizi (14 ta) baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, va 8,2 foizi (77 ta) boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi



**Nikoh.** 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo'limlari tomonidan 29 998 ta nikoh qayd etilib, 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,7 promilleni tashkil etdi.


Tuzilgan nikohlar soni bo'yicha 2018 yilning mos davriga nisbatan 340 taga kamayish bo'lib, Oltinkul tum. 159 ta kamayish holatlari yuz berdi.



**Nikohdan ajralishlar.** 2019 yilning yanvar-dekabr oylarida shahar, tuman hokimliklarining FHDYO bo'limlari tomonidan 3 650 ta nikohdan ajralish holatlari qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,2 promilleni tashkil etdi. Ajrimlar soni bo'yicha 2018 yilning mos davriga nisbatan 499 taga kamayish holatlari kuzatilgan.

## Hududlar kesimida nikoh tuzish va nikohdan ajralish koeffitsiyenti

(2019 yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



## Demografik holat

### Shahar va tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni (yanvar-dekabr, kishi)

|                     | <i>Tuzilgan nikohlar</i> |                |            | <i>Nikohdan ajralishlar</i> |                |            |
|---------------------|--------------------------|----------------|------------|-----------------------------|----------------|------------|
|                     | <i>2018 y.</i>           | <i>2019 y.</i> | <i>(%)</i> | <i>2018 y.</i>              | <i>2019 y.</i> | <i>(%)</i> |
| Andijon viloyati    | <b>30 338</b>            | <b>29 998</b>  | <b>99</b>  | <b>4 149</b>                | <b>3 650</b>   | <b>88</b>  |
| Andijon sh.         | 3 983                    | 4 191          | 105        | 657                         | 589            | 90         |
| Xonobod sh.         | 336                      | 295            | 88         | 74                          | 72             | 97         |
| <b>Tumanlar</b>     |                          |                |            |                             |                |            |
| Oltinko'l tumani    | 1 844                    | 1 685          | 91         | 222                         | 180            | 81         |
| Andijon tumani      | 2 445                    | 2 581          | 106        | 361                         | 322            | 89         |
| Baliqchi tumani     | 1 882                    | 1 914          | 102        | 214                         | 150            | 70         |
| Bo'ston tumani      | 649                      | 634            | 98         | 77                          | 67             | 87         |
| Buloqboshi tumani   | 1 352                    | 1 432          | 106        | 213                         | 169            | 79         |
| Jalaquduq tumani    | 1 862                    | 1 838          | 99         | 246                         | 191            | 78         |
| Izboskan tumani     | 2 600                    | 2 335          | 90         | 368                         | 321            | 87         |
| Ulug'nor tumani     | 563                      | 527            | 94         | 61                          | 52             | 85         |
| Qo'rg'ontepa tumani | 1 939                    | 1 962          | 101        | 279                         | 271            | 97         |
| Asaka tumani        | 3 187                    | 3 081          | 97         | 432                         | 426            | 99         |
| Marhamat tumani     | 1 604                    | 1 600          | 100        | 245                         | 226            | 92         |
| Shahrixon tumani    | 2 899                    | 2 788          | 96         | 320                         | 250            | 78         |
| Paxtaobod tumani    | 2 027                    | 1 924          | 95         | 237                         | 230            | 97         |
| Xo'jaobod tumani    | 1 166                    | 1 211          | 104        | 143                         | 134            | 94         |

## Demografik holat

Dastlabki ma'lumotlarga qaraganda viloyatda doimiy aholi sonining milliy tarkibini ulushi eng yuqori ko'rsatkichi foiz hisobida O'zbek millati 89,5 foiz, Tojik millati 5,9 foiz, Qirg'iz millati 2,0 foiz, Rus millati 1,2 foiz va boshqa millatga mansublar 1,4 foizni tashkil etadi.



Millatlar



**Migratsiya.** 2019 yil oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni **7 592** kishini tashkil etdi.

2019 yilda viloyat bo'yicha ko'chib ketganlar soni esa **9 766** kishini tashkil etdi.



Migratsiya saldosini minus – **2 174** kishi bo'lib, 2018 yilning o'tgan shu davrida minus - **1 890** kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi

|                             | 2018 yil | 2019 yil |
|-----------------------------|----------|----------|
| <b>Ko'chib kelganlar</b>    | 6 609    | 7 592    |
| <b>Ko'chib ketganlar</b>    | 8 499    | 9 766    |
| <b>Migratsiya saldosini</b> | -1 890   | -2 174   |

O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'chib kelganlar soni **983** kishiga ko'paygan, ko'chib ketganlar soni esa **1 267** kishiga ko'paygan.

2019 yil davomida migratsiya saldosining eng yuqori kamayish darajasi Andijon sharida (minus – **538** kishi) va eng yuqori o'sish darajasi Andijon tumanda (**360** kishi) qayd etildi.

**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**

tel:(373) 228-30-54